

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK RAQSINING RIVOJLANISHI

Tursunoy Xadjaaxmedova

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
San'at nazariyasi va tarixi (xoreografiya bo'yicha)
1-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mustaqillik yillarida yurtimizda turli sohalarning, shu jumladan raqs san'atining rivojlanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *raqs, san'at, istiqlol, jamiyat, ma'naviyat*

Istiqlol yurtimizda yangilanish davrini boshlab berdi. Bu davrda o'zlikni anglash, istedodni namoyish etish imkoniyati yaratildi. Xalq ma'naviyatini yuksaltirish va tafakkurini oshirishda adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari, xususan televideniyeining roli beqiyosdir. Shuning uchun insonlarga kerakli va ularning ma'naviy taraqqiy etishiga ijobiy ta'sir o'tkazadigan dasturlar va xabarlarni yetkazib berishda televideniye tezkorligiga e'tibor qaratildi. Chunki tezkorlik ila yetkazilgan xabar va yangiliklar tomoshabinni ekran qarshisiga yana-da yaqinroq olib keladi. Shu bilan birga, insonlar o'zlariga yangidan-yangi informatsiyalar yig'ib boradi, yangiliklardan boxabar bo'lib, jamiyatdagi turli o'zgarishlarni ko'rib borgan holda, yuksalishga intiladi. Yurt ma'naviyati qanchalik kuchli bo'lsa, o'sha yerda rivojlanish va taraqqiyot bo'ladi. Bu borada ommaviy axborot vositalari ham alohida o'rin tutadi. Texnikaning rivojlanishi ta'sirida televideniyeining tasviriy ifoda vositalari kuchayib bormoqda.

San'at - bu ijodkorlik shakli, hissiy va ifodali vositalar (tovush, tananing plastikligi, rasm, rang, yorug'lik, tabiiy material va hokazo). Muayyan predmet ijodi natijasida vujudga kelgan badiiy asardir. San'at asarlarini talqin qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularga xos bo'lgan ma'no tushunchalar tiliga tarjima qilib bo'lmaydi. U san'atning o'ziga xos qiymati haqidagi g'oyaning tasdig'idir. San'at insonning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, dunyoni tushunishning yangi tajribasini taklif qiladi, qo'zg'atishga, kundalik ongini uyg'otishga intiladi.

San'at orqali inson o'z tajribasini kengaytiradi. Ijtimoiy tajriba doirasida san'at insonga o'zini o'zi sinab ko'rish, ma'naviy va axloqiy tekshirishdan o'tib, o'zini alohida shaxs sifatida topishga imkon beradi. San'at insonning o'zini o'zi anglashning o'ziga xos noyob tasviri sifatida shaxsni shakllantirish shakli sifatida ishlaydi. San'at katta hajmli va keng tushuncha bo'lib, yaratish demakdir. Raqs esa, eng go'zali va insonni butun his-tuyg'ularini boshidan kechirishga undovchi san'at turidir.

Raqs – qadim zamonlardan paydo bo'lgan bo'lib, barcha arxeologik ma'lumotlarda, dostonlar, afsonalar, qoyatosh rasmlari, haykaltaroshlik kompozitsiyalaridagi son-sanoqsiz raqqosalar tasvirlari va boshqa manbaalar raqsning keng tarqalganligidan guvohlik beradi.

Raqs san'ati insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan hissiy taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu san'at dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik bergan. Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. O'zbek raqslari mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanganlar.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya tosh tasvirlari arxeologik topilmalar bu erda raqs juda qadimiyligidan guvohlik beradi. Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» davridayoq raqs san'ati shakllanib, xalq va professional raqs – ikki yo'nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarixiy ma'lumotlar bor.

Mamlakatimizda milliy va umumbashariy ahamiyatga molik milliy raqs san'atini yanada yuksak mavqega ko'tarishga xizmat qiladigan, tarixiy ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy raqsimiz millat tarixini, ruhiyati, orzu-umidlari va armonlarini aks ettiradigan san'at namunasi hisoblanadi. Uning tarixini o'rganish xalqning urf-odatlarini, an'analarni, buguni va kelajagini o'rganish, tadqiq qilish demakdir. Akademiya ilmiy jamoasi say-harakati milliy raqs millatning o'zligini, qadim orzu-umidlarini aks ettirishini yoshlarga tushuntirish milliy raqsimizni bebaho madaniy merosimiz, mamlakatimizning tashrif qog'ozlaridan biri sifatida asrab-avaylashga qaratilgan. Shuningdek, o'zbek raqs san'atini targ'ib qilishga, iste'dodli talabalarning xorijdagi nufuzli oliy dargohlarda tahsil olishlariga, bu borada xalqaro aloqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayni kunlarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida –Moskva davlat lingvistika universiteti bilan o'zaro hamkorlik haqida shartnoma tayyorlanmoqda. Zero, milliy raqs san'atining madaniy hayotimizdagi o'rnini belgilash, uning yo'qolib borayotgan turlarini tiklash va noyob namunalarini asrab-avaylash, yanada rivojlantirish, dunyo miqyosida tanitish va targ'ib qilish eng ustuvor vazifalardan biridir. O'zbek milliy raqs san'atiga bo'lgan e'tibor sifatida bir qancha kitob, maqola, risolalar nashr etildi. Professional san'at ijodkorlari, olimlar yetishib chiqdi.

O'zbek milliy raqs san'ati millatimizning madaniy-ma'naviy boyligi bo'lib ko'z qorachig'idek asrab avaylab kelinmoqda. O'zbek raqs san'atining rang-barang va serjilo janrlari, shakl va turlari o'zining betakror ijro jozibasini, yorqin ifodaviyligi, mazmuni va emotsional kuchi bilan hech kimni befarq qoldirmaydi, o'ziga maftun etib hayratga soladi. Milliy qadriyatlarimizni boyitayotgan raqs san'atining an'analari bugungi kunga qadar ham badiiy-estetik qimmatini yo'qotgani yo'q.

Yurtimizda istiqbol qo'lga kiritilgan ilk kunlardan boshlab o'zbek xalqining boy madaniy-ma'naviy merosi, urf-odatlarini va an'analarni qayta tiklash, rivojlantirish va ularni kelajak avlodga asl mazmun-mohiyati bilan meros qoldirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu borada keng ko'lamli ishlar ham amalga oshirila boshlandi. Madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalarida tadbir etilayotgan islohotlar kelajagi buyuk davlatni qurishga, vatan ravnaqini ta'minlashga bo'lgan ishonchni yanada

mustahkamlashga ko'mak bermoqda. Mazkur bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi hozirgi iqtisodiyot ustuvor bo'lgan vaqtda, globalizatsiya va integratsiya sharoitida Respublikamizda jamiyatning estetik dunyoqarashini boyitish, kengaytirish borasida raqs san'atini estetik-tarbiyaviy faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Uni xorijiy davlatlarda o'rganish, isloh qilish, bugungi kunda dolzarb masalalar qatoriga kiradi.

Raqs san'atining amaliy turi rivojlanish davrida ushbu sohaga oid nazariy bilimlar ham yozma shaklda o'z ifodasini topdi va raqslar bilan hamohang holda shakllandi. Aynan o'zbek raqsini tarixini dastlab yozma shakliga keltira olgan, san'atshunos olimi Lyubov Avdeyeva, Roziya Karimova va shu kabi fidokor raqsshunoslar, o'zbek raqs san'atida erishilgan marralarni yosh avlodga yetkazishda katta yutuqlarga erishgan bo'lib, ushbu olimalardan qolgan nazariy bilimlar raqs san'ati va madaniyati tarixining va bugungi kunining ma'lum bir qismini tashkil etadi. Bu borada, yosh avlod vakillari, san'atshunoslar ustozlar an'analari davom ettirib, muvaffaqiyatli natijalarga erishib kelmoqda. To'y va hashamlarda, ba'zi hollarda davlat tadbirlari va xatto televideniya taqdim etilayotgan ko'rsatuv va filmlarda ham nodir raqs namunalarimizni nojo'ya harakatlar bilan "boyitishga urinishni, buzib talqin etilishini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonlarda aynan bosma nashrlar orqali o'zbek milliy raqsining asl namunalari xalqimiz va jahon sahnasida tarannum etilayotgani va raqqosalarning ijodiy faoliyatini o'rganish, tahlil qilish masalasi o'z dolzarbligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/musta-illik-yillarida-zbek-ra-s-sanati-tarihini-davrlashtirish-masalasi-va-horeografiya-sanatini-rganishda-manbalarning-a-amiyati>
2. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13512-2021-06-30-10-30-57>
3. https://uza.uz/ru/posts/milliy-raqs-sanatimiz-dargasi_487953?q=%2Fposts%2Fmilliy-raqs-sanatimiz-dargasi_487953
4. <https://lex.uz/docs/4084926>
5. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbek-raqsi-afsonasi-mukarrama-turgunboeva-izhodiga-bagishlangan-raqs-memori-mavzusidagi-khalqaro-konferentsiya-bolib-otdi>